

**CHIZMACHILIK DARSLARIDA IJODIY MASALALAR DAN FOYDALANISHNING  
O'QITISHDAGI SAMARADORLIGI**

**Qobiljonova Jasmina Jasur qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Tasviriyl san'at va muhandislik grafikasi 3-bosqich talabasi*

*+998 91 568 22 08*

*qobiljonovajasminajasurqizi@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chizmachilik darslarida ijodiy masalalardan foydalanishning o'qitishdagi samaradorligi hamda o'quvchilarni fanga qiziqishini va mavzuni tez o'zlashtirishlari uchun didaktik o'yinlardan foydalanish, grafik hamda fazoviy bilimlarni shakllantirish masalalari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** proyeksiya, didaktik, ijodiy, fazoviy, detal, grafik. tasavvur, chizma, masala.

**Abstract:** This article discusses the effectiveness of the use of creative issues in drawing classes and the use of didactic games, the formation of graphic and spatial knowledge, in order to increase students' interest in science and quickly master the subject.

**Keywords:** projection, didactic, creative, spatial, detailed, graphic. imagination, drawing, problem.

Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatimizda ta'lif tizimiga e'tibor berilayotgan bir paytda, darslarni zamonaviy talablar asosida o'tish davr talabi hisoblanadi. Umumta'lif maktablari o'quvchilar uchun bilim olishning dastlabki poydevori sanaladi. Maktablarda o'quvchilar umumta'lif fanlari bo'yicha dastlabki tushunchalarni oladilar va o'quvchilar hayotining keying qismida chizmachilik fanidan olgan bilimlarni albatta asqotadi. O'quvchilarni o'quv faniga qiziqtirish, ularni zukkolik, topqirlik, intiluvchanlik, ijodkorlik hamda kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish o'qituvchidan bilim, tajriba va mahorat talab qiladi.

Chizmachilik darslarida didaktik o'yinlar, axborot texnologiyalari bilan bir qatorda darslar davomida ijodiy masalalardan foydalanish o'quvchilarni zukkoligi, tezkor fikrlash, fazoviy tasavvurlarini shakllantiradi va oshiradi.

O'smirlik davrida bolalar darsdan tez zerikadilar, o'qishga bo'lgan qiziqishlari sustlashadi. Bu paytda odatiy dars jarayonlaridan ko'ra, kompleks yondashuvlar asosida tuzilgan dars jarayonlari o'quvchilarni qiziqishini oshirishda qo'l keladi. Qobiliyatlarni ikki darajaga ajratish mumkin: reproduktiv va ijodiy. Reproduktiv qobiliyatda, shaxs bilimlarni tez egallash va muayyan faoliyatni o'zlashtirish, uni namuna bo'yicha amalga oshirish qobiliyatini namoyon qiladi. Ijodiy qobiliyatda, shaxs mustaqil faoliyat yordamida yangi va o'ziga xos narsalarni yaratishga qodir.


Ta’limni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad esa yosh avlodga chuqur bilim berish, ulardagi mavjud layoqat va iste`dodlarni rivojlantirishdan iboratdir.

Maktab o‘quvchilari chizmachilik fanidan nazariy bilimlarini va amaliy ko‘nikmalarini yaxshi, hamda mukammal o‘zlashtirib olishlari uchun ko‘p mashq qilishlari lozim bo‘ladi. Chizmachilik darslarini samaradorligi hamda o‘quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun didaktik o‘yinlar, aqlni charxlash uchun ijodiy masalalar eng yaxshi usul.

Chizmachilik fanlarini o‘qitishda ijodiy o‘yinlardan foydalanish o‘sib kelayotgan yosh avlodni fazoviy tasavvurlarini kengaytirishga, grafikaga oid bilimlarini real o‘zlashtirishga, idrok etish samaradorligini oshirish hamda ijodiy faolligini xar tomonlama kamol toptirishga zamin yaratadi. O‘yining tarbiyaviy maqsadi o‘quvchida mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.<sup>20</sup> Chizmachilik darslarining asosiy mavzulari fazoviy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchi dars jarayonida ushbu jarayonlarni tasavvur qila olishi va shularga tayanib grafik topshiriqlarni bajara olishi lozim.

Maktabda ko‘plab fanlarni o‘rganar ekan, o‘quvchilar asosan tekis figuralar tasviri bilan shug‘ullanadilar. 7-9-sinflarning ko‘p o‘quvchilari tekis va fazoviy figuralarini aniqlashda yomon yo‘naltirilgan, chunki o‘quv jarayonida ular tekislikda ishlashlari, geometriya yoki texnologiya darslarida oddiy figuralar, diagrammalar, jadvallar qurishlari kerak. Ko‘pincha, savollarga javob berishda, o‘rta maktab o‘quvchilari uchburchak va konus, aylana va silindr kabi tushunchalarni ajrata olmaydi.<sup>21</sup>

Bunda o‘qituvchiga qo‘yiladigan asosiy vazifa o‘quvchilarni yoshi, qiziqishlari hamda maktabdagি sharoitlarni inobatga olgan holda metodlar qo‘llashdan iborat. O‘quvchilarga bitta mavzuni tushintirgandan so‘ng, o‘tilgan mavzularni takrorlash, o‘tilgan mavzularni yangi mavzular bilan aloqadorligini **1-rasm. Chizmani H, W, V proyeksiyalarda ko‘rinishi.**



<sup>20</sup> A. Mahmudov. “Fizika va texnologik ta’lim” jurnali. 2023-yil, №1 14-bet.

<sup>21</sup> Z. Shafoatov. “Chizma darslarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences jurnali. 982-b.


ta'minlash va umumlashtirish hamda boblar yuzasidan takrorlash, mavzuga mos didaktik o'yinlar va ijodiy masalalar tayyorlash lozim. Dastlab o'quvchilarga sodda ijodiy masalalar tayyorlash, so'ngra osondan murakkabga qarab borish lozim.

1-rasmida proyeksiyalar mavzusiga doir chizma berilgan va ranglar yordamida proyeksiya tekisliklari: gorizontal-H, frontal-V va profil-W tekisliklariga ajratilgan.

Sariq rang-profil proyeksiyalar tekisligi; qizil rang-gorizontal proyeksiyalar tekisligi; ko'k rang-frontal proyeksiyalar tekisligi: binafsha rang ham gorizontal, ham frontal proyeksiyalar tekisligdagi ko'rinishlari berilgan.

Shu chizmadan foydalaniib, keying ijodiy masalalar yechiladi. 2-rasmida berilgan masalada detallarning yaqqol tasviri berilgan va qaysi tomondan ko'rish kerakligi ko'rsatkich chizig'i yordamida ko'rsatilgan.

**2-rasm. "To'gri proyeksiyani top" metodi.**




Bu masalarni darslar davomida qo'llash o'quvchilar chizmani o'qiy olish hamda detal ko'rinishlariga qarab chizmani yaqqol ko'rinishini tasavvur qila olish, o'zi mustaqil dizaynda detallar yaratish va fazoviy holatini o'zgartirish qobiliyatlarini va tezkorlik, chaqqonlik, tezda qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarini shakllantiradi.

Bu turdagи masalalar quyidagi mavzularni o'rganishga yordam beradi:

1. Ob'ektning geometrik shaklini tahlil qilish.
2. Geometrik jismlar sirtlarini ishlаб chiqish.

3. Detal chizmalarini o‘qish.
4. Kesimlar va kesmalar.
5. Aksonometrik proyeksiyalar bo‘yicha qirqimlar.
6. Yig‘ish chizmalarini o‘qish.



3-rasmda, yuqorida berilgan masalani murakkabroq ko‘rinishi berilgan. Bunda endi topshiriq o‘zgaradi. O‘quvchilar ikki proyeksiya yordamida detalning yaqqol tasvirini topishlari lozim. Bu masalani ishlashda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib ishslash tavsiya etiladi. Chunki jamoada ishslash qobiliyatları, hamjihatlik, fikr almashish bo‘ladi. Yakka tartibda **3-rasm** ishslashdan, jamoaviy hamjihatlikda ishslash yaxshi samara beradi va jamoadagi sust o‘quvchilarni ham harakatga undaydi. O‘quvchilar o‘yinlar paytida o‘zlarini erkin tutadilar hamda tengdoshlari bilan sog‘lom raqobat yuzaga keladi. O‘yin davomida chizmalarni hayotiy buyumlarga taqqoslash, iqrok etish yuzaga keladi va aql charxlanadi.

Ammo ikkinchi tomondan qaraganda dars jarayonlarini faqat o‘yinlar bilan o‘tkazib yubormaslik lozim. Bu ijodiy masalalarga 5 daqiqadan 10 daqiqagacha vaqt ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, chizmachilik darslarida ijodiy masalalardan foydalanish o‘quvchilarni tezkor fikrlash, chizmalarni o‘qish va fazoviy holatini tasavvur qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantiradi va shu bilan birga o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Didaktik o‘yinlarni jamoaviy tarzda olib borish o‘quvchilarni o‘zar o‘quvchilarni ta’minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Murodov SH, Tashimov N., “Grafika tarixi va taraqqiyoti”, Toshkent, 2011, TDPU rizografi.
2. P.Odilov va boshqalar. Chizmachilik. Toshkent. TDPU. 2000.
3. E.Ijro‘ziyev, A.O.ashirboyev “Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi” darslik “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent-2010
4. Z. Shafoatov. “Chizma darslarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences jurnali. 982-b.

